

“ONA” KONSEPTINING LINGVOMADANIY VA KOGNITIV FENOMEN SIFATIDAGI TALQINI

Murodjonova Durdona Abdumannon qizi,

Lingvistika: o‘zbek tili mutaxassisligi 2-kurs magistranti

E-mail: mamajonovadurdona07@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada konsept va uning mohiyati haqida so‘z yuritilgan, “Ona” konseptining lingvomadaniy va kognitiv fenomen sifatidagi xususiyatlari yoritilgan, o‘zbek hamda rus mentaliteti misolida qiyosiy tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: konsept, fenomen, mentalitet, lingvomadaniyat, kognitiv tilshunoslik, biologik tushuncha.

Abstract. This article discusses the concept and its essence, highlights the characteristics of the concept of “Mother” as a linguistic, cultural and cognitive phenomenon, and conducts a comparative analysis using the example of the Uzbek and Russian mentalities.

Keywords: concept, phenomenon, mentality, linguistic culture, cognitive linguistics, biological concept.

Аннотация. В данной статье рассматривается концепция и ее сущность, освещаются характеристики понятия “Мать” как лингвистического, культурного и познавательного феномена, а также проводится сравнительный анализ на примере узбекского и русского менталитетов.

Ключевые слова: концепция, явление, менталитет, языковая культура, когнитивная лингвистика, биологическая концепция.

Kirish. Tilning taraqqiyotida uning eng o‘zgaruvchan, eng tez harakatdagi qismi leksikasidir. Dunyoda til haqidagi ta’limotlar taraqqiyotning turli davrlarida goh e’tirof etilgan, goh rad qilingan yoki unutilgan (yo unutilgan) bu haqiqat o‘tgan asrning oxiri va asrimizning boshlarida, xususan, bugun tilshunoslikning turli yo‘nalishlaridagi haqqoniy tadqiqotlarning chinakam tamal toshiga aylandi. Ushbu yo‘nalishlardan biri kognitiv tilshunoslik ham til tizimining leksik sathini chetlab o‘tmaydi. Kognitiv tilshunoslikning yetakchi birliklaridan biri bo‘lgan “konsept” tushunchasini o‘rganishga zamonaviy tilshunoslikda alohida e’tibor qaratilmoqda. Konsept kognitiv tilshunoslik birligi bo‘lish bilan bir qatorda adabiyotshunoslik, mantiq, falsafa, madaniyatshunoslik, lingvokulturologiya kabi fan sohalarida ham o‘z aksini topgan hamda fanning turli sohalarida turlicha ta’riflanadi. Bu atamaga ilk bor S.A.Askoldov o‘zining “Konsept va so‘z” maqolasida to‘xtalgan edi [1:10]. Uning fikricha, konseptlar vositasida turli millat vakillari muloqotga kirishadi, shunga ko‘ra konseptlarni yaratish va qabul qilish ikki tomonlama kommunikativ jarayon hisoblanadi. D.S. Lixachevning keltirishicha konsept – bu individual anglash jarayoni va ma’lum kontekstda so‘z ma’nosini almashtirish hisoblanadi [4:287]. V.A.Maslova konsept deganda olam tasvirining asosiy elementlarini nazarda tutadi [5:51] va ularni yaratishda lingvomadaniy hamjamiyat uchun ham, til sohibi uchun ham muhim bo‘lgan madaniy xususiyatlar asosiy rol o‘ynaydi, deya ta’kidlaydi. E.S.Kubryakovani esa, konsept – inson psixikasida aks etadigan, butun olam qiyofasini

ifodalaydigan lisoniy obyekt bo‘lib, mental leksikonning xotiradagi operativ mazmuniy birligi deb hisoblaydi. Ayni paytda, konseptning ko‘p qatlamli ekanligi ham ta’kidlangan [3:90].

Adabiyotlar sharhi. Bir qator tilshunoslarning konsept haqidagi qarashlariga tayangan holda fikrlarimizni umumlashtiradigan bo‘lsak, “Ona” konsepti ham insoniyat ongida joylashgan, butun olam qiyofasida aks etadigan lisoniy mental tushunchadir. . “Ona” konseptining “farzand dunyo keltirgan shaxs” degan umumiy ma’no qatlamiga ega. Ona umumiy ko‘rinishda hayot davom etishini ta’minlaydigan jins vakili. Bu “dunyo keltirish” vazifasi bilan ona tushunchasi ham umumiy lashadi, ham xususiy lashadi. “Ona” konseptining asosiy ma’nosiga madaniy ma’nolarni ham yuklasa bo‘ladi. Chunki ona – tarbiya, ona – namuna, ona – ko‘zgu. Ona milliy mansublikni bolaga singdiradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Lingvokulturologiyada lingvomadaniy fenomen ma’lum bir xalqning tarixi, qadriyatlarini, madaniyatining tilda namoyon bo‘lish hodisasidir. Lingvomadaniy fenomen matnda obraz, ibora kabi lisoniy birliklar bilan ifodalanadi. Lingvomadaniy fenomenga bir qancha misollar keltirish mumkin. Misol uchun, non, oq rang, qora rang, osmon, ot va hkz. Lingvomadaniy fenomenning eng yorqin misoli esa Onadir. Ona obrazi keng ma’no qatlamiga ega. Ona obrazi tilda mehr-oqibat, fidoyilik, hayot manbayi va muqaddaslik tushunchalarini mujassam etadi. O‘zbek tilidagi “ona allasi”, “Ona duosi”, “Ona tuproq” kabi birikmalar bu obrazning chuqur lingvomadaniy mazmunga egaligini ko‘rsatadi. Ushbu birliklar orqali xalqning oilaga, ayolga va avlod davomiyligiga bo‘lgan munosabati lisoniy shaklda ifodalanadi. “Ona” konsepti bir vaqtning o‘zida bir qancha ma’nolarni ifodalashi mumkin: *do‘st, sirdosh, himoyachi, qo‘llab-quvvatlovchi* va h.k. Bu “Ona” konseptining umumiy, ya’ni har bir xalq onasida uchaydigan belgilaridir. Bundan tashqari, “Ona” konsepti milliy aspektda xususiy lashishi mumkin. O‘zbek lingvomadaniyatida ona fidoiy va muqaddas ko‘riladi. Shu jihatdan u *ona vatan, ona suti, ona duosi* kabi birikma shaklida ko‘p ishlatiladi. Rus lingvokulturologiyasida esa “ona” konsepti ko‘proq psixologik yaqinlik va shaxsiy munosabatlar doirasida talqin qilinadi.

Natijalar. “Rus olamining lisoniy manzarasida ona eng yaqin va qadr don sifatida baholanishiga shubha yo‘q. Bunda ona rus lingvomadaniy makonida vatan timsoli ekanligini ta’kidlash muhimdir. Ona timsolida Vatan jonlantiriladi. Ko‘pchilikning semiotik xotirasida urush yillaridagi qahramon ayol obrazi saqlanib qolgan”[8:43].

O‘zbek va rus mentalitetidagi “Ona” konseptining xususiyatlaridagi farqlarni quyidagi jadvalda ko‘rish mumkin:

Belgilar	O‘zbek mentaliteti	Rus mentaliteti
<i>Ona obrazi</i>	Muqaddas, ulug‘	Psixologik yaqin
<i>Asosiy baho</i>	Axloqiy, diniy	Hissiy, dramatik
<i>Ona–Vatan munosabati</i>	Tabiiy va qadimiy	Ideologik va tarixiy
<i>Yetakchi xususiyat</i>	Fidoyilik, sabr	Kechinma, fojiaiylik
<i>Ong tipi</i>	Umumiy	Individual

Bundan ko'rishimiz mumkinki, "Ona" konsepti tarixiy va milliy o'ziga xoslikni ifodalaydi. O'zbek lingvomadaniyatidagi "Ona" fenomenining belgilari bir-birini o'zaro taqoza etadi hamda to'ldiradi. "Ona" konsepti fenomen sifatida muqaddas, ulug'lik obraziga ko'tarilishi onaga bo'lgan asosiy baho ya'ni axloqiy, diniy qarashlardan kelib chiqadi. Bunda muqaddaslik, ehtirom, duo, farishta, jannat kabi tushunchalar bilan assotsiativ bog'lanadi. O'zbek hamda musulmon xalq vakillarining diniy tafakkurida Ona muqaddas zot, uning roziligi hamda xizmatini ado etish Alloh rahmati bilan bog'lanadi degan tushunchaning mavjudligi "Ona" konseptiga berilgan diniy, axloqiy bahoning asosi hisoblanadi. Mazkur tushuncha, albatta, Qur'on hamda hadislar orqali ongda o'z aksini topgan:

Abu Hurayra roziyallohu anhu rivoyat qilinadi:

"Bir odam Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning huzurlariga kelib: "Yo Rasululloh, mening yaxshi muomala qilmog'imga kim haqliroqdir?" – deb so'radi. Janob Rasululloh: "Onang!" – deb aytdilar. U: "Yana kim?" deb so'radi. Janob Rasululloh: "Onang!" – dedilar. U: "Yana kim?" – dedi. Janob Rasululloh: "Onang!" – dedilar. U: "Yana kim?" – deb so'radi. Janob Rasululloh (bu safar): "Otang!", deb javob qildilar"[2:27].

"Jannat Onalar oyog'i ostidadir".

Shuningdek, o'zbek lingvomadaniyatida "Ona" konseptiga tipik qarash kuchli bo'lib, deyarli barcha o'zbek tili egalarining ongida umumiy ehtiromdagi muqaddas ona birinchi navbatda gavdalanadi. Rus madaniyatida esa onaga har bir shaxsning o'z bahosi hamda munosabatida individuallik yuqori bo'lib, bu ularni tug'ilgandan voyaga yetgunlariga qadar ona bilan birga tarbiyachi(nyanka)larning teng daraja hayotida o'rni borligi bilan izohlanadi.

Kognitiv tilshunoslikda konseptlar nafaqat umumxalq ongida shakllangan barqaror mazmunga, balki shaxsiy tajriba va individual xotira bilan bog'liq assotsiativ qatlamga ham ega hisoblanadi. Bu jihatdan "Ona" konsepti inson ongida eng kuchli shaxsiy maydonga ega konseptlardan biridir.

Shaxsiy-assotsiativ xususiyat deganda konseptning muayyan individ tafakkurida hayotiy tajriba, emotsional xotira va subyektiv baholar asosida yuzaga keladigan ma'no qatlamlari tushuniladi. "Ona" konsepti bu jarayonda biologik tushunchadan chiqib, individual kechinmalar bilan boyigan murakkab kognitiv birlikka aylanadi.

Insonning ilk hayotiy tajribasi onasi bilan bog'liq bo'lgani sababli, ona obrazi ongda *mehr, himoya, xayfsizlik, ishonch* kabi asosiy assotsiatsiyalar bilan mustahkamlanadi. Bu assotsiatsiyalar har bir shaxsda turlicha shakllanadi va ona konseptining subyektiv talqinini yuzaga keltiradi. Masalan, ayrim shaxslar uchun ona iliqlik va panoh timsoli bo'lsa, boshqalar uchun sog'inch, yo'qotish yoki ichki iztirob bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Shaxsiy-assotsiativ qatlam ko‘pincha sensor xotira orqali faollashadi: *ona ovozi, hid, qo‘l harorati, allalar, bolalik xotiralari* ona konseptini jonlantiruvchi kuchli assotsiativ signallar hisoblanadi. Bu holat ona obrazining faqat semantik emas, balki emotsional-psixologik mazmunga ega ekanini ko‘rsatadi.

Kognitiv jihatdan “ona” konseptining shaxsiy-assotsiativ modeli markazida individual emotsiya joylashadi, uning periferiya qatlamida esa umumxalq qadriyatlari va madaniy stereotiplar mavjud bo‘ladi. Bu ikki qatlam o‘zaro uyg‘unlashib, konseptning ko‘p qatlamli mazmunini hosil qiladi.

“Ona” konseptining fenomen sifatida shakllanishida yillar davomida ma’nolar tizimida qanday o‘zgarishlar bo‘lganligiga ham e’tibor qaratish kerak bo‘ladi. “Ona” so‘zi turkiy tillar tizimida eng qadimiy va barqaror birliklardan biri bo‘lib, uning etimologik ildizlari qadimgi turkiy davrlarga borib taqaladi. E.Sevortyan ta’kidlaganidek, *ana / ene / ona* shakllari dastlab biologik ona ma’nosida qo‘llanilgan bo‘lsa-da, vaqt o‘tishi bilan bu birliklar semantik kengayishga uchragan va ramziy ma’nolarni ham o‘zida mujassamlashtirgan [7:146].

Qadimgi turkiy bitiklarda ona obrazi ko‘pincha urug‘ va nasl davomchisi, hayot manbai sifatida talqin qilinadi. Bu holat “Ona” konseptining faqat oilaviy emas, balki ijtimoiy-madaniy ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi. Masalan, “Ona yer”, “Ona yurt” birikmalarining paydo bo‘lishi bevosita ushbu tarixiy semantik kengayish bilan bog‘liq.

Diaxron tahlil shuni ko‘rsatadiki, “Ona” tushunchasi dastlab biologik kategoriya bo‘lgan bo‘lsa, keyinchalik u madaniy, axloqiy va metafizik tushunchaga aylangan. Bu jarayon konseptning lingvomadaniy tabiatini belgilab, uning kognitiv maydonda markaziy o‘rin egallashiga sabab bo‘lgan.

Xulosa qilib aytganda, “Ona” konsepti lingvomadaniy va kognitiv fenomen sifatida tahlil qilish “Ona” konseptining nafaqat biologik tushuncha sifatidagi mazmuni, balki uning milliy, madaniy, axloqiy va shaxsiy-assotsiativ qatlamlari mavjudligi aniqlashga yordam beradi. Bu holat mazkur konseptning inson ongida chuqur ildiz otgan, barqaror va ko‘p qatlamli kognitiv fenomen ekanini ko‘rsatadi. Tilshunoslikda konseptni tadqiq qilish til va tafakkur o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni chuqurroq o‘rganish imkonini beradi. Konsept tadqiqi til tizimining mazmuniy jihatlarini kengroq yoritishga xizmat qilib, nazariy hamda amaliy tilshunoslikda taqiqotlar uchun muhim ilmiy asos yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Аскольдов С.А. Концепт и слово // Русская словесность. От теории словесности к структуре текста. Антология/ Под общей редакцией д-ра филол.наук проф. В. П. Нерознака. М.: Academia, 1997. – С. 267-279.
2. Ahmedov S. va boshqalar. Adabiyot. 5-sinfi uchun darslik. – Toshkent: Sharq, 2020. – 272 b.
3. Кубрякова Е.С., Панкратц Ю.Г., Демянков. В.З. Краткий словарь когнитивных терминов. – М.: МГУ, 1996. – 90 с.
4. Лихачев Д.С. Концептосфера русского языка // Русская словесность. От теории словесности к структуре текста. Антология. –М.: Academia, 1997. – С. 280-287.
5. Маслова В.А. Лингвокультурология. – М.: “Academia”, 2001. – 208 с.

6. Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. – Жиззах: Сангзор, 2006. – 92 б.
7. Севортян Е.В. Этимологический словарь тюркских языков. – М.: Наука, 1978. – С. 349.
8. Вежбицкая Я. Концепт мать в русской и польской лингвокультурах // ACTA UNIVERSITATIS LODZIENSIS FOLIA LINGUISTICA ROSSICA 14, 2017. – С. 43.

